

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



B MARKETING E INNOVATSIYA D I BIZNES S RAQAMLI MARKETING V D ELEKTRON TIJORAT

№2-SON

2025-YIL, FEVRAL

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrziyevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamSI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti “Menejment va marketing” kafedrasini mudiri

Elektron nashr 609 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 28-fevralda ruxsat etildi

HAMKORLARIMIZ:

1. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
2. “O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasi



MUNDARIJA

AHOLI O'RTASIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING AHAMIYATI	7
Nazarova Ra'no Rustamovna	
INTEGRATING UZBEKISTAN STATE BUDGET STRATEGIES WITH FINANCIAL LITERACY FOR ECONOMIC PROSPERITY	17
Nazarova Rano Rustamovna, Jamolov Bejan Xurshidovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	26
Karrieva Yakutjan Karimovna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINI HUDUDIY STATISTIK GURUHLASH	33
Akbarova Barno Shuxratovna	
KORXONALARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI: RAQAMLI MARKETING VOSITALARINI INTEGRATSIYA QILISH VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH USULLARI ..	40
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	
JIZZAX VILOYATI FERMER XO'JALIKLARI FAOLIYATINING STATISTIK TADQIQI	47
Ayubjonov Abbas Xosilovich, Ratayev Faxriddin Irismatovich	
UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGINI YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	58
Berdiyeva Dilfuza Axatovna, Najmiddinov Sherzod Qiyomiddin o'g'li	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHGA YO'NALTIRILGAN OILAVIY TADBIRKORLIKDA INSON IMKONIYATLARIGA YONDASHUVI	65
Ernazarova Nilufar Nozimjonovna	
IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARINING O'RNI VA IQTISODIY FAOLIYATINING STATISTIK TAHLILI	75
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
NEYROMARKETINGNING ZAMONAVIY REKLAMA STRATEGIYALARIGA TA'SIRI	86
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilaram Yusubayevna	
O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ HO'JALIK MAHSULOTALARI ISHLAB CHIQRISHNING AHAMIYATI	97
Masharipova Fazilat Axmedovna	
THE IMPORTANCE OF BENCHMARKING IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF MANUFACTURING ENTERPRISES.....	106
Musayeva Shoirazimovna	
KORXONALARNING FAOLIYATIDA DAROMAD VA XARAJAT HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Muxibova Guli Yarkinovna, Turabekova Ominaxon Ulug'bek qizi	
TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	119
Sapayev Axmed Durdibaevich	
"UNIVERSITET 4.0" MODEL: RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA UNIVERSITETLARNING RAQAMLI MARKETING YONDASHUVI	127
Xidoyatov Murod Batirovich	
TURIZM INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH YONDASHUVLARI.....	139
Yusupova Mexribon Uktamovna	
MINTAQADA TRANSPORT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TADQIQI.....	148
Sapayev Axmed Durdibayevich	
O'ZBEKISTONDA YUK VA YO'LOVCHI TASHISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	154
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	

BANK XIZMATLARINING TRANSFORMATSIYASI VA MOLIYAVIY TEKNOLOGIYALARINING ROLI.....	162
Azimova Nasiba Shuxratovna	
KORXONALAR FAOLIYATIDA MEHNAT INTIZOMINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI.....	170
Azizova Sayyora Xamidullayevna	
HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASIDA MAHALLIY BYUDJETLAR BARQARORLIGINI TA’MINLASH YO‘LLARI.....	176
Davlatov Muradbek Saparboyevich	
SIX MAIN STAGES OF THE SUPPLY PROCESS.....	183
Ergashev Jahongir Bakhodirovich	
O‘ZBEKISTONDAGI QURILISH MATERIALLARI SANOATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	195
Igamova Shaxinya Zikrilloevna	
XALQARO SAYYOHLIK BOZORIDA IJTIMOIIY TARMOQLARDAN FOYDALANISHNING DOLZARB TENDENSIYALARI.....	202
Kasimova Zilola G‘ulomiddinova	
KORXONA IQTISODIYOTIDA EKOLOGIK BOSHQARUV TIZIMINI JORIY ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	210
Qodirov Abduvoxid Abdumannof o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONDA TUROPERATORLAR FAOLIYATIDA MARKETINGNI TAKOMILLASHTIRISH	220
Qutlimurotov Fayzullo Sadulayevich	
INNOVATION MENEJMENT TAMOIYILLARI ASOSIDA KORXONALARNING BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	229
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
THE IMPORTANCE OF OPERATING EXPENSES IN MANAGEMENT COSTS	237
Turdieva Gulaida Omirbayevna, Maulenberganova Khusnida Khursand qizi	
ILM-FAN SOHASIDA BOZOR MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISH TIZIMI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI.....	247
Tursunov Bekmuxammad Omonovich	
KORPORATIV BOSHQARUVNING KOMPANIYA KAPITAL QIYMATIGA TA’SIRI	255
Urinov Bobur Nasilloevich	
O‘ZBEKISTONDA MEHMONXONA XO‘JALIGI MILLIY TASNIFLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	263
Xamitov Mubin Xabibjonovich	
RAQAMLI TEKNOLOGIYALARINING KO‘ZI OJIZLARNING INTELLEKTUAL FAOLIYATIDAGI O‘RNI	276
Mannopova Manzura Jamil qizi	
HUDUDLARDA ENERGIYA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	284
Safarov Akbar Shokirovich	
TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIGA SINERGIYANING TA’SIRI VA UNING ELEMENTLARI	291
Tojiyev Sa’dulla Muhitdinovich	
УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИЯМИ В СФЕРЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ НА РЕГИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ	302
Абдурахманов Зафар Мамурович	
ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	311
Карабаева Гулнора Шарафитдиновна,	

НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В КИТАЕ	320
Медынская Ирина Вильевна	
MODA INDUSTRIYASIDA NEYROMARKETINGDAN FOYDALANISH	339
Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
KORXONALARNING EKSPORT SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH	346
Jiyamuradov Rustam Nuriddinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA BIZNES MODELLARINING SHAKLLANISHI	351
Saatova Lolakhon Ergashevna	
MODA INDUSTRIYASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	359
Ahmedova Rayhona Jasurbek qizi	
OLIY TA'LIM MUASSALARI BOSHQARUVINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	367
Berdiyev Temurbek Maxmudullo o'g'li	
MINTAQALARDA KLASSTERLARNING TASHKILIY IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH	376
Beknazarova Manzura Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON ISHLAB CHIQRUVCHI KORXONALARIDA BRENDNI MILLIY AN'ANALARGA MOS RAVISHDA SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI	383
Babaxodjayev Giyosiddin Nasirovich	
THE ROLE OF PROGRAMMATIC ADVERTISING IN DATA-DRIVEN MARKETING: OPTIMIZING TARGETED ADVERTISING STRATEGIES IN THE TOURISM SECTOR	392
Sodikov Mirziyo Odiljon ogli	
UMUMIY FOYDALANISHDAGI AVTOMOBIL YO'LLARINI QURISH, QAYTA QURISH ISHLARIGA XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI MABLAG'LARINI JALB QILISH	400
Pardayev Fayzulla G'affarovich	
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА	407
Гафурова Дилшода Рамазановна	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI MARKETING VOSITALARI: IJTIMOY MEDIA MARKETINGDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	414
Xamidov Obidjon Xafizovich	
Baxtiyorova Nigina Ulug'bek qizi	
KOMPANIYALAR KAPITAL AKTIVLARINI BAHOLASHNING NAZARIY JIHATLARI	423
Bunyod Usmonov Aktam o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ КЛАСТЕРОВ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ОБЗОР	427
Садриддинова Нигора Хусниддиновна	
ИГРЫ И ИГРОВЫЕ ЗАНЯТИЯ ПО ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ	433
Фозилова Фирангиза Комиловна	
BILIMLAR IQTISODIYOTINI SHAKLLANTIRISH SHAROITIDA TA'LIM SOHASINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	440
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	448
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	458
Sodiqova Dilafruz Zohid qizi	

O'ZBEKISTONDA YASHIL MOLİYANI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA STRATEGIK YO'NALISHLARNI ANIQLASH	467
Masharipova Shahlo Adambaevna	
MOBIL ALOQA TARMOQLARINING DUNYO IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI	478
Dilafroz Aripova	
TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASHNING TASHKILY MOLİYAVIY MEXANIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.	489
Naziraliyev Diyorbek Imomali o'g'li	
SUG'URTA KOMPANIYALAR MOLİYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR VA ULARNI BAHOLASH USULLARI	500
Haqberdiyev Bekzod Uktamovich	
AGROKLAUSTER TIZIMIDA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOG'INING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI VA ULARNI QO'LLASH STRATEGIYALARI.....	509
Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich	
SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	517
Raximov Anvar Norimovich	
MOLIYA-KREDIT MEXANIZMLARI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RAG'BATLANTIRISH: XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR TAJRIBALARI.....	527
Ergashev Otamurod Tashtemirovich	
MUHANDISLIK TA'LIM SOHALARI TALABALARIDA TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODEL.	536
Butayev Tuxtasin	
O'ZBEKISTONDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI ASOSIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	543
Abdusattorov Sarvar Shokirovich	
АНАЛИЗ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ СЕТИ МЕТОДАМИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ.....	552
Алланиязова Айсапа Муратовна	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	564
Yadgarova Nigora Rixsulla qizi	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	572
Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA IFLOSLANISHINI BAHOLASH VA BARQARORLIQNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	584
Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li	
MOLIYAVIY XAVFLAR TASNIFINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	591
Jabborov Azamat	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR INNOVATSION BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISH TAJRIBALARI.....	596
Baymuratova Madina Tursunboy qizi	
IQTISODIYOTNING TARKIBIY O'ZGARISHLARINI KICHIK BIZNES TARAQQIYOTINI TA'MINLASHDAGI ROLINI BAHOLASH MASALALARI	602
Elov Olimdjon Komilovich	

UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGINI YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI

Berdiyeva Dilfuza Axatovna

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti “Menejment” kafedrası
professori v.b. PhD.

E-mail: dili01.07@mail.ru

[ORCID: 0000-0003-2455-385X](#)

Najmiddinov Sherzod Qiyomiddin o‘g‘li

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti “Menejment” kafedrası magistranti

E-mail: sherzodnajmiddinov1@gmail.com

[ORCID: 0009-0007-3923-3214](#)

Annotatsiya

Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim nazariy asoslarga ega bo‘lib, ekologik barqarorlik va iqtisodiy o‘sishni uyg‘unlashtirishni maqsad qiladi. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning nazariy jihatlari va uning uy-joy kommunal xo‘jaligidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash kabi tamoyillar bu sohada qanday qo‘llanilishi mumkinligi ko‘rib chiqiladi. Yashil iqtisodiyot tamoyillarining joriy etilishi uy-joy kommunal xo‘jaligining samaradorligini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta’minlashdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyot tamoyillarining uy-joy kommunal xizmatlarini yaxshilashdagi amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, uy-joy kommunal xo‘jaligi, ekologik barqarorlik, resurslar samaradorligi, innovatsion boshqaruv, atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy adolat.

Аннотация

Зелёная экономика обладает важными теоретическими основами для обеспечения устойчивого развития и направлена на гармонизацию экологической устойчивости и экономического роста. В данной статье анализируются теоретические аспекты зелёной экономики и её значение в жилищно-коммунальном хозяйстве. Рассматривается, как такие принципы, как рациональное использование ресурсов, повышение энергоэффективности и обеспечение экологической безопасности, могут быть применены в этой сфере. Анализируется роль внедрения принципов зелёной экономики в повышении эффективности жилищно-коммунального хозяйства, охране окружающей среды и обеспечении устойчивого развития. Результаты исследования демонстрируют практическую значимость принципов зелёной экономики в совершенствовании жилищно-коммунального хозяйства.

Ключевые слова: зелёная экономика, устойчивое развитие, жилищно-коммунальное хозяйство, экологическая устойчивость, ресурсоэффективность, инновационный менеджмент, охрана окружающей среды, социальная справедливость.

Abstract

The green economy has important theoretical foundations for ensuring sustainable development and aims to harmonize environmental sustainability and economic growth. This article analyzes the theoretical aspects of the green economy and its significance in the housing and communal services sector. It examines how principles such as rational resource use, increasing energy efficiency, and ensuring environmental safety can be applied in this field. The implementation of green economy principles is analyzed in terms of its role in improving the efficiency of housing and communal services, environmental protection, and sustainable development. The research results demonstrate the practical significance of green economy principles in enhancing housing and communal services.

Keywords: green economy, sustainable development, housing and communal services, environmental sustainability, resource efficiency, innovative management, environmental protection, social justice.

KIRISH

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi XXI asrning eng dolzarb va rivojlanayotgan yoʻnalishlaridan biridir. U global iqtisodiyotning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarini barqaror rivojlantirishga qaratilgan strategiya boʻlib, ayniqsa, atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslardan samarali foydalanish bilan bogʻliq muammolarni hal qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi — atrof-muhitga zarar yetkazmasdan hamda tabiiy resurslardan unumli foydalanish orqali barqaror rivojlanish modelini shakllantirishdir. Bu soha nafaqat ekologik muammolarni bartaraf etishga, balki ijtimoiy adolat va iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashga ham qaratilgan.

Uy-joy kommunal xoʻjaligi esa yashil iqtisodiyotning ajralmas qismi boʻlib, u atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslar samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion boshqaruv usullarini oʻz ichiga oladi. Kommunal tizimlarda energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash, suv va boshqa resurslardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish kabi chora-tadbirlar yashil iqtisodiyotga asoslangan barqaror rivojlanishning asosiy elementlaridir. Shu bois uy-joy kommunal xoʻjaligi sohasida yashil iqtisodiyotning innovatsion yondashuvlari nafaqat ekologik barqarorlikni taʼminlashi, balki ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etishi lozim.

Mazkur tadqiqot yashil iqtisodiyotning nazariy asoslarini va uning uy-joy kommunal xoʻjaligidagi ahamiyatini oʻrganishga qaratilgan. Yashil iqtisodiyot ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni muvozanatli rivojlantirishga intiladi. Ushbu sohadagi tamoyillar resurslarni tejash, atrof-muhitga ekologik zarar yetkazishni kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash kabi maqsadlarni oʻz ichiga oladi. Uy-joy kommunal xoʻjaligi esa insonlar uchun zarur boʻlgan kommunal xizmatlar va infratuzilmalarni taʼminlashda yashil iqtisodiyot yondashuvlarini tatbiq etishda muhim rol oʻynaydi.

Tadqiqotda ushbu sohadagi yashil iqtisodiyot imkoniyatlari, shuningdek, energiyani tejash, chiqindilarni qayta ishlash va barqaror shaharlar qurishdagi

innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — uy-joy kommunal xo'jaligida yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish orqali barqaror rivojlanishga erishishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot sohasidagi ilmiy adabiyotlar, ayniqsa, atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslar samaradorligini oshirish bilan bog'liq tadqiqotlar bo'yicha juda keng qamrovga ega. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar ekologik barqarorlik, ijtimoiy adolat va iqtisodiy o'sishning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Tadqiqotlarda yashil iqtisodiyotning ekologik va iqtisodiy jihatlari, shuningdek, uning turli mamlakatlarda muvaffaqiyatli amalga oshirilgan amaliyotlari o'rganilgan.

Smit (2019) yashil iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirishdagi o'rni haqida so'z yuritgan. U yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi sifatida energiya samaradorligini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy o'sishni uyg'unlashtirishni belgilaydi. Smitning fikricha, yashil iqtisodiyotning o'ziga xosligi resurslardan foydalanish va ularni tejashga qaratilgan yondashuvni o'z ichiga oladi. Bu esa iqtisodiy va ekologik tizimning barqaror rivojlanishiga imkon yaratadi.

Shuningdek, boshqa bir qator tadqiqotchilar yashil iqtisodiyotning ijtimoiy jihatlari ham alohida e'tibor qaratgan. Johnson (2020) yashil iqtisodiyotning ijtimoiy adolatga ta'sirini tadqiq qilgan bo'lib, u yashil iqtisodiyotning jamiyatga foydalari, jumladan, barqaror ish o'rinlarini yaratish, ijtimoiy tenglikni qo'llab-quvvatlash va umumiy farovonlikni oshirish kabi jihatlarni yoritgan. Johnsonning fikricha, yashil iqtisodiyot uy-joy kommunal xo'jaligida atrof-muhitni muhofaza qilish orqali aholi turmush darajasini yaxshilashga yordam beradi.

Yashil iqtisodiyotning O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi bo'yicha ham ilmiy izlanishlar mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrda "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son¹ Qarori qabul qilingan. Ushbu qarorda yashil iqtisodiyotning turli sohalaridagi amaliyotlarini joriy etish va uy-joy kommunal xo'jaligida ekologik barqarorlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Dasturda uy-joy sektorida energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash va barqaror resurslardan foydalanish kabi chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

METODOLOGIYA

Yashil iqtisodiyotning uy-joy kommunal xo'jaligidagi qo'llanilishini tahlil qilish uchun bir nechta metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Birinchidan, asosiy manbalarni tahlil qilish orqali yashil iqtisodiyot va uning uy-joy kommunal xo'jaligidagi o'rni bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar o'rganildi. Ikkinchidan, ekologik barqarorlikni ta'minlash va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha O'zbekiston va boshqa davlatlarda olib borilgan tadqiqotlar hamda amaliyotlar o'zaro solishtirildi.

Metodologiyaning asosiy usuli sifatida kvalitatif tahlil va kamchiliklarni aniqlash ishlari amalga oshirildi. Ushbu usullar yordamida yashil iqtisodiyotning uy-

¹ <https://lex.uz/docs/-4539502>

joy kommunal xo'jaligidagi muhim komponentlari, ularning mavjud ahamiyati va amaliyotdagi qo'llanilishi haqida umumiy tasavvur shakllantirildi. Empirik tahlil va statistik ma'lumotlar orqali turli hududlardagi barqaror rivojlanish natijalari o'rganildi va umumiy tendensiyalar belgilandi.

Ushbu metodologik yondashuvlar maqolada ko'rsatilgan tushunchalar va usullar yordamida aniq natijalarga erishish imkonini beradi. Yashil iqtisodiyotning uy-joy kommunal xo'jaligidagi o'rni va ahamiyati haqida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkoniyatini ta'minlaydi. Bu usullar yordamida amaliyotda yashil iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etish samaradorligi tahlil qilindi, mavjud muammolar aniqlandi va ularni bartaraf etish bo'yicha batafsil fikrlar bildirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyotning uy-joy kommunal xo'jaligidagi ahamiyatini hamda uning ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi rolini chuqur tahlil qilishga asoslangan. Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy natijalar quyidagilardan iborat:

1. Yashil iqtisodiyotning uy-joy kommunal xo'jaligidagi o'rni Yashil iqtisodiyot uy-joy kommunal xo'jaligida ekologik barqarorlikni ta'minlash va resurslardan samarali foydalanishning eng muhim vositasi sifatida qaraladi. Ayniqsa, energiya samaradorligi, chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash kabi sohalarida sezilarli natijalarga erishishga imkon beradi. Tadqiqotda ko'rsatilganidek, uy-joy sektorida energiya iste'moli, suv va issiqlik resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish orqali yashil iqtisodiyot ijtimoiy va ekologik jihatlar bilan bir qatorda iqtisodiy o'sishga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

2. Ekologik barqarorlikka ta'siri Tadqiqot davomida yashil iqtisodiyotning ekologik barqarorlikka ta'siri ham o'rganildi. Uning asosiy maqsadi atrof-muhitni himoya qilish va resurslardan uzoq muddatli barqaror foydalanishdir. Tadqiqotda ekologik barqarorlikka ta'sir qiluvchi omillar sifatida chiqindilarni kamaytirish, energiya va suv resurslarini tejash, shuningdek, yangilanuvchi energiya manbalaridan foydalanish masalalari alohida ta'kidlandi. Yashil iqtisodiyot tamoyillarining joriy etilishi natijasida uy-joy kommunal xo'jaligi sektorida ekologik ifloslanish kamaygan va resurslardan foydalanish optimallashtirilganligi kuzatilgan.

3. Resurslardan samarali foydalanish Tadqiqotda resurslar samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator muvaffaqiyatli misollar keltirildi. O'zbekiston va boshqa davlatlarda uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etish natijasida energetik resurslardan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada oshgan. Yashil iqtisodiyotga asoslangan boshqaruv strategiyalari yordamida energiya tejamkorligi va chiqindilarni kamaytirish amaliy natijalarga erishishga xizmat qilgan.

4. Innovatsion boshqaruvning o'rni Tadqiqotda innovatsion boshqaruvning yashil iqtisodiyotga ta'siri alohida o'rganildi. Yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv usullarini joriy etish muhimligi isbotlandi. Innovatsion boshqaruvning asosiy elementlari sifatida: Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, "Yashil" texnologiyalarni joriy etish, Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha zamonaviy usullarni qo'llash kabi jihatlar

ko'rsatib o'tildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, innovatsion boshqaruv yondashuvlari yashil iqtisodiyotning samarali ishlashini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

5. Ijtimoiy adolat va yashil iqtisodiyot Tadqiqotda yashil iqtisodiyotning ijtimoiy jihatlarini ham tahlil qilindi. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadlaridan biri – ijtimoiy adolatni ta'minlashdir. Tadqiqotda yashil iqtisodiyotning ijtimoiy adolatga ta'siri, jumladan, jamiyatda tenglikni oshirish, aholi uchun barqaror ish o'rinlarini yaratish va keng imkoniyatlar taqdim etish borasidagi amaliyotlar muhokama qilindi. Yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida uy-joy kommunal xo'jaligida aholi farovonligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash imkoniyati mavjudligi aniqlangan.

6. Tadqiqot natijalarining O'zbekiston sharoitidagi o'rni


O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyot tamoyillarining qo'llanilishi bo'yicha olingan natijalar ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatmoqda. O'zbekiston hukumati tomonidan yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni amalga oshirishda sezilarli yutuqlarga erishildi. Bunga misol sifatida uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik barqarorlikni ta'minlash kabi amaliyotlarni keltirish mumkin.

Ushbu natijalar yashil iqtisodiyot tamoyillarini uy-joy kommunal xo'jaligiga joriy qilish orqali resurslar samaradorligini oshirish, innovatsion boshqaruvni rivojlantirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash, ekologik barqarorlikni mustahkamlash va kelgusi tadqiqotlar uchun ilmiy asos yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot natijalari asosida yashil iqtisodiyotning uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidagi ahamiyati va uning amaliy qo'llanilishining imkoniyatlari muhokama qilinishi zarur. Tadqiqot davomida yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanish, ekologik barqarorlik va resurslardan samarali foydalanish nuqtai nazaridan o'rganilganligi hamda ushbu tamoyillarni uy-joy kommunal xo'jaligiga joriy qilishning dolzarbligi aniqlangan.

1-rasm tahlillarida ko'rishimiz mumkinki, yashil iqtisodiyotning uy-joy kommunal xo'jaligida tatbiq etilishi, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Tadqiqotda shuningdek, yashil iqtisodiyotning iqtisodiy jihatlariga e'tibor qaratilgan, bu orqali ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish va iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkinligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy qilishda ba'zi muammolar mavjud. Bularning eng asosiylari – iqtisodiy qiyinchiliklar, texnologiyalarni joriy etishdagi to'siqlar va ijtimoiy qabul qilishdagi o'zgarishlarga tayyorlik darajasi. Bu masalalar ustida ishlash va ularni hal etish uchun hukumat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash zarur.



1-rasm. Respublika hududlari kesimida 2023-yilda energosamaradorlik ko'rsatkichlari tahlili¹

Bundan tashqari, yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari va uy-joy kommunal xo'jaligidagi rolini xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlari tadqiqotda ko'rib chiqilgan bo'lib, ular O'zbekiston sharoitiga moslashtirilishi mumkin. Ko'plab rivojlangan mamlakatlar yashil iqtisodiyot tamoyillarini o'z uy-joy kommunal tizimlarida muvaffaqiyatli tatbiq qilgan. Ularning tajribasidan foydalangan holda, O'zbekistonda ham aynan shu yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish mumkin.

Natijalar, shuningdek, yashil iqtisodiyotning ijtimoiy adolat bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'lsa-da, bu jarayonning ijtimoiy jihatlari ham muhimdir. O'zbekistonning uy-joy kommunal tizimida yashil iqtisodiyotning joriy etilishi, jamiyatning barcha qatlamlariga teng imkoniyatlar yaratishda yordam beradi va shu orqali ijtimoiy adolatni oshiradi.

Umuman olganda, tadqiqotning natijalari yashil iqtisodiyotning uy-joy kommunal xo'jaligida joriy etilishi mumkin bo'lgan imkoniyatlarni va shu jarayonning oldida turgan muammolarni aniqladi. Bu masalalar ustida izlanishlar olib borish va tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur bo'ladi. Yashil iqtisodiyotning joriy etilishi nafaqat iqtisodiy va ekologik, balki ijtimoiy jihatdan ham ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyotning uy-joy kommunal xo'jaligiga ta'siri va uning barqaror rivojlanishga qo'shadigan hissasi chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari – ekologik barqarorlik, resurslar samaradorligi va innovatsion boshqaruvning uy-joy kommunal sohasida joriy etilishi, nafaqat atrof-muhitni himoya qilish, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ham ta'minlaydi.

Bundan tashqari, maqolada keltirilgan natijalar ko'rsatadiki, ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun amaliy ravishda innovatsion texnologiyalar va

¹ <https://www.stat.uz/uz/> ma'lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi.

boshqaruv usullarini joriy etish zarur. Yashil iqtisodiyot tamoyillarini muvaffaqiyatli amalga oshirish, shuningdek, siyosiy va iqtisodiy omillarni hisobga olishni talab qiladi. Tadqiqotda xulosaga kelishimiz mumkin, yashil iqtisodiyotning uy-joy kommunal xo'jaligida keng qo'llanilishi uchun samarali siyosat, texnologiyalar va xalqaro hamkorlik zarur.

Shu bilan birga, ushbu maqola kelgusi tadqiqotlar uchun asos bo'lib, yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish bo'yicha yangi yondashuvlarni rivojlantirishga yordam beradi. O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotning rivojlanishi, ijtimoiy adolatni ta'minlash, ekologik barqarorlikni oshirish va resurslardan samarali foydalanishni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Berdiyeva D.A. (2023). Uy-joy fondi boshqaruvini samarali tashkil etish. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, (10), 460–465. <https://doi.org>
2. Niyazov U., & Urazov M. (2021). *Green Economy and Sustainable Development in Uzbekistan. Economic Research Journal*, 32(2), 123–139.
3. Smith J., & Green P. (2018). *Sustainable Development in Housing and Communal Sectors. Journal of Environmental Economics*, 45(2), 123–140.
4. Grigoryan M., & Ivanova A. (2020). *Green Economy: Concepts, Practices, and Challenges. Journal of Environmental Management*, 250, 109477.
5. Ghasemi A., & Javadi M. (2019). *The Role of Urban Management in the Implementation of Sustainable Development Goals. Sustainability*, 11(3), 567.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**